Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



MAMLAKATNING IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SANOAT 4.0 NING ROLI: TAHLIL VA NATIJALAR

Xujaxonova Sitora Baxtiyor qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali, "Iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sanoat 4.0 ning ahamiyati va ta'siri ochib berilgan. Iqtisodiy rivojlanish, xususan, sanoat tarmoqlarida innovatsiya muhitini rivojlantirishdagi majjud muammolar chuqur o'rganilgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish holati, uning yalpi ichki mahsulot va eksportdagi ulushi hamda hududiy sanoat bo'yicha tahlil amalga oshirilgan. Shuningdek, sanoatni barqaror rivojlantirish bo'yicha istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda muhim sanalgan yo'nalishlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sanoat 4.0, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya, ishlab chiqarish, texnologiya.

Abstract: This article explains the importance and impact of Industry 4.0 on the socio-economic development of the country. The existing problems in economic development, especially in the development of the innovation environment in industrial sectors, have been studied in depth. The analysis of the state of industrial production by type of economic activity, its share in GDP and exports, as well as by regional industry. It also proposes important areas for the development of promising strategies for sustainable development of the industry.

Key words: industry 4.0, digital economy, socio-economic development, innovation, manufacturing, technology.

Аннотация: В этой статье объясняется важность и влияние Индустрии 4.0 на социально-экономическое развитие страны. Существующие проблемы в развитии экономики, особенно в развитии инновационной среды в отраслях промышленности, глубоко изучены. Проведен анализ состояния промышленного производства по видам экономической деятельности, его доли в ВВП и экспорте, а также по отраслям региона. Также предлагаются важные направления для разработки перспективных стратегий устойчивого развития отрасли.

Ключевые слова: индустрия 4.0, цифровая экономика, социально-экономическое развитие, инновации, производство, технологии.

KIRISH

O'tgan COVID-19 global pandemiyasi nafaqat Xitoy iqtisodiyoti, balki global iqtisodiyotga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni ko'plab davlatlarda ayrim yirik sanoat korxonalari va kichik biznes subyektlari faoliyatini vaqtincha to'xtatishga, ko'plab xodimlar masofadan ishlash rejimiga o'tdi. Bunda tabiiyki, mahsulot ishlab chiqarish va mehnatga haq to'lash miqdorlarida kamayish tendensiyasi kuzatildi. Bu esa dunyo bo'ylab tovar aylanmasining qisqarishiga va sun'iy inflatsiyaning qisman o'sishiga olib keldi.

Ammo yuqoridagilar global pandemiya oqibatida o'rnatilgan cheklovlarning iqtisodiyotga nisbatan salbiy ta'siri sifatida masalaning bir tomoni hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan esa mazkur pandemiya rivojlangan mamlakatlar qatorida ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ham raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuviga olib keldi. Xususan, bank xizmatlari, to'lovlar, elektron savdo, xizmatlar va logistika sohalari shular jumlasidandir.

Boshqacha aytganda, raqamlashtirish jarayonlari sust bo'lgan mamlakatlarda pandemiya ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar hamda munosabatlarni raqamlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va talabni oshishiga olib kelib, ushbu jarayonlarni raqamlashtirishni tezlashtirish va jadallashuviga olib keldi.

Ammo shuning aholidagi ta'kidlash lozimki, biror bir jarayonning tarkibiy o'zgarishi uchun albatta, qaysidir omillar sabab bo'ladi. Iqtisodiyotning, xususan, sanoatni raqamlashtirishda raqamli texnologiyalar asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, shu texnologiyalardan samarali foydalana oladigan malakali personallar va boshqa omillarning o'zaro integratsiyasi asosida raqamli tizim tashkil etiladi.

Demak, iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish bir emas, bir necha omillar orqali amalga oshiriladi. Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, yangi raqamli texnologiyalar va mos sharoitlarda joylashtirishni tashkil



etish katta kapitallarni talab etadi. Bundan tashqari, iqtisodiyotni raqamlashtirish, ayniqsa, ishlab chiqarish sohasini raqamlashtirish yangi innovatsion qarashlarni talab etadi.

Bularga mos ravishda bugungi iste'molchilarning talablari ham individuallashtirib, o'ziga xoslik darajasi oshib bormoqda. Bunday sharoitda korxonalar bozordagi iste'molchilarni egallashi uchun faqat narx diskriminatsiyasidan emas, balki o'z mahsulotlarining nafillik darajasini oshirish orqali amalga oshirish lozim bo'ladi.

Albatta, barqaror va yuqori darajada iqtisodiy o'sishga erishishda mamlakatda iqtisodiy siyosat muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat buning yaqqol dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni ^[1] ana shunday iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur strategiyada belgilab berilgan vazifalarni, jumladan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sanoat 4.0 ning ta'sirini baholash va uni yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi. O'z navbatida bularning barchasi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli texnologiya iqtisodiy farovonlikning ko'p o'lchovlarida, masalan, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim va hokazolarda ishtirok etishni qamrab olishi bilan ahamiyatlidir ^[2]. Ya'ni to'rtinchi sanoat inqilobi avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish va robotlashtirish bilan birgalikda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga asoslangan bo'lib, texnik hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga olib keladi ^[3].

Bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, innovasiyalar va unumdorlikni oshirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lishi mumkin ^[4].

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, sanoat tuzilmasi tarkibini raqamli texnologiya innovasiyasi asosida takomillashtirish aholini sifatli sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini oshiradi ^[5]. Jumladan, sanoat 4.0 ning rivojlanishi bandlik darajasini 3 foiz va yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini 5 foizga oshishiga olib kelmoqda ^[6].

Bundan tashqari, sanoat 4.0 ning rivojlanishi texnologik axborotda mavjud bo'lgan mintaqaviy to'siqlarni kesib o'tish, xalqaro hamkorlik dasturini ishga tushirish va markazlashtirilmagan infratuzilmani qurish uchun zamin yaratadi ^[7].

Bundan kelib chiqadiki, sanoat 4.0 iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratishni oshiribgina qolmay, mahsulot sifatining ham yaxshilanishiga olib keladi. Real sektor korkonalari ishlab chiqarish jarayonlarining mobiligini va bozor talabiga yuqori darajada moslashuvchanligini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, dinamik qatorlar, analitik taqqoslash, mantiqiy fikrlash va guruhlash usullar keng qo'llanilgan. Shuningdek, mazkur mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilingan. Tahlillarda rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi elektron savdo, to'lov, ta'lim, xizmat ko'rsatish, moliyaviy va davlat xizmatlari sektorlarda kuzatilmoqda.

Ammo mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirishda sanoatga alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki, har bir mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda asosiy tarmoq va qo'shimcha qiymat yaratishda eng yuqori o'rinda turuvchi bu aynan sanoatdir.

Iqtisodiy rivojlanishda iqtisodiy innovasiyalarning turli xil shakllari keltirish mumkin:

- yangi tovar yoki xizmatni joriy etish;
- ishlab chiqarishning yangi usulini joriy etish;
- yangi bozorning ochilishi;
- xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlarning yangi ta'minot manbasini egallash;
- har qanday sohada yangi yo'nalishni ochish va boshqalar.

Zero, mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi holati milliy iqtisodiyotda innovasion o'zgarishlarni amalga oshirish sur'atlarini jadalashtirishni talab etmoqda. Iqtisodiyoti rivojlangan mamalakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki chuqur, samarali innovasion strategiyani amal qilishi mamlakat iqtisodiy va tabiiy omillaridan oqilona foydalanish orqaligina amalga oshirish mumkin.


Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida iqtisodiyot innovasion shakllanishi eng avvalo, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi tarmoqlar hisobiga yuz beradi, bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotini xom ashyo eksport



qilishini kamaytirish bilan birga uni qayta ishlashni rivojlantirishga, valyuta mablag'larining tejalishiga, aholi bandligining oshishiga sabab bo'ladi. Ushbu omillar o'z navbatida innovasiya strategiyasini amalga oshirish mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlanishiga olib keladi. Biroq bugungi fan-texnika taraqqiyoti, qolaversa, jahon bozorida ro'y berayotgan innovasion o'zgarishlar erishilgan yutuqlar bilan chegalalanib qolishga imkon bermaydi.

Innovasion jarayonni amalga oshirishdan maqsad investitsiyalashtirishning sifat o'zgarishini ta'minlagan holda subyektlar olayotgan foyda o'sib borishiga erishishdan iborat. Chunki har qanday iqtisodiy jarayon ishlab chiqarish jarayonidagi ishlab chiqarish resurslarini iqtisodiy mahsulotlarga aylantirish bilan bog'liq.

Umuman olganda, ularning barchasi insoniyat tarixida amalga oshirilgan sanoat inqiloblari natijalari maxsulul desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugunga qadar 4 ta sanoat inqilobi ro'y berdi: 1784-yil, 1870-yil, 1969-yil va hozirgi davr (1-rasm).



1-rasm: Sanoat inqiloblari tasnifi¹

Ayni davrda rivojlanib, tobora kengayib borayotgan raqamli iqtisodiyotni to'rtinchi sanoat inqilobi deya ta'kidlanmoqda. Garchi, u odatda o'z-o'zidan sanoat dasturlari sifatida tasniflanmaydigan sohalar bilan bog'liq bo'lsa-da. Masalan, aqlli uy, aqlli shahar, aqlli ferma.

Sanoat internetining asosi bu tizimlarning integratsiyasi va real vaqt rejimida mavjudligi hamda korxona bo'ylab boshqarilishidir. Ushbu innovasion jarayon raqamli yechimlar va ilg'or texnologiyalar paydo bo'lishi tufayli amalga oshirildi. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Sanoat buyumlari interneti;
- Katta ma'lumotlar;
- Bulutli texnologiyalar;
- Rivojlangan robototexnika;
- Integrallashgan virtual tarmoqlar.

Ushbu texnologiyalar qiymat va ta'minot zanjiri bo'ylab o'zaro bog'liq kompyuter dasturlari orqali turli xil tizimlar va jarayonlarni birlashtirish orqali ishlab chiqarishning raqamli o'zgarishini boshqarishga yordam beradi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirzayoyev "Bugungi o'zgaruvchan sharoitda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning eng samarali yo'li bu – ichki imkoniyatlarni ishga solish, import bo'layotgan ayrim mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish va sanoatni yanada rivojlantirish. Bu milliy iqtisodiyotimizning ustuvor yo'nalishi bo'lishi kerak", deb ta'kidladi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligidan sanoat ishlab chiqarishiga o'tish, dastlab XVIII asrda Angliyada boshlangan hamda keyinchalik dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlariga tarqalgan va bu sanoat inqilobi sifatida ifodalanadi.

Albatta, bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishiga asoslangan iqtisodiyotdan xizmat ko'rsatish sohasi rivojlangan iqtisodiyotga o'tish ancha silliq kechdi. Buni barcha rivojlangan mamlakatlar amaliyoti ko'rsatib turibdi. Ammo bu jamiyatda bandlik va mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida katta o'zgarishlarga olib keldi.

Zero, jahon iqtisodiyotida iste'mol va noiste'mol tovarlarining uchdan ikki qismi aynan sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda YAIMning qariyb 47,8 foizi va jami bandlikning 22,4 foizi aynan sanoat tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi [8]. Xalqaro tajribalar sanoat rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etishi, iqtisodiy mustaqillikka erishishi, aholi turmush farovonligini ta'minlash va bandlik muammolarini bartaraf etishda ham muhim tarmoq ekanligini ko'rsatmoqda.

Xususan, 2022-yilda respublika sanoat tarmog'ida 3170,1 ming kishi (1883,3 ming nafari sanoatda va 1286,8 ming nafari qurilishda) band bo'lib, bu jami bandlikning 23,4 foizini tashkil etadi. Shuningdek, 2017-2022-yil-

¹ Ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.



larda sanoat (qurilishni qo'shgan)da yillik o'rtacha bandlik 3648,8 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, bu 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 1,05 baravarga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkichlar iqtisodiyotning boshqa sohalarida, xususan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2022-yilda 3502,1 ming kishi band bo'lgan bo'lsa, bu 2017-yilga nisbatan 0,96 ga kamaygan, xizmatlar sohasida esa 6866,7 ming kishi band bo'lib, 2017-yilga nisbatan 1,04 baravarga oshgan.

2022-yilda mamlakatimizning jami sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishida yuqori ulush Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Jumladan, Toshkent shahrida 107267,6 mlrd. so'm sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 106,0 foizni tashkil etdi. Toshkent viloyatida esa 93002,2 mlrd. so'm sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 105,1 foiz, Navoiy viloyatida 84144,6 mlrd. so'm sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 105,7 foizini tashkil etgan.

So'ngi yillarda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining eksportdagi ulushi jadal oshib bormoqda. Zero, Prezidentimiz "Yangi bozorlarga kirish uchun sanoatga xalqaro standartlarni keng joriy qilish ham zarur. Misol uchun, 2019-2022-yillarda to'qimachilik yo'nalishidagi 2 mingta korxona xalqaro sertifikat olgani hisobiga ularning eksporti 1,5 barobarga oshgan" [9] deb ta'kidladi.

2022-yilda respublika bo'yicha tashqi savdo aylanmasi 42071,6 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Shundan, 16610,6 mln. AQSH dollarini eksport va 25461,0 mln. AQSH dollarini import tashkil etadi. 2020-yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 116,0 foiz, eksport 110,0 foiz va import 120,4 foizga o'sgan.

Tashqi savdo aylanmasining 15867,8 mln. AQSH dollari, shundan 5407,6 mln. AQSH dollar eksport va 10460,2 mln. AQSH dollar import MDH davlatlari bilan amalga oshirilgan bo'lsa, boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 26203,7 mln. AQSH dollari, eksport hajmi 11203,0 mln. AQSH dollar va import hajmi 15000,8 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

Shuni alohida qayt etish kerakki, 2022-yildagi eksport hajmining 59,9 foizini tovarlar, 15,3 foizini xizmatlar va 24,8 foizini oltin tashkil etadi. Ushbu eksport tarkibining 2021-yilga nisbatan o'sish sur'ati mos ravishda tovarlar 136,5 foiz, xizmatlar 127,1 foiz va oltin 70,8 foizni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval: 2021-2022-yillar bo'yicha respublikaning eksport va importi tarkibi², mlrd. AQSH dollarida

T/r	Tashqi savdo aylanmasi	2021-y.	2022-y.	O'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
1.	Eksport:	15102,3	16610,6	110,0	100,0
-	tovarlar	7292,8	9953,4	136,5	59,9
-	xizmatlar	2005,0	2547,4	127,1	15,3
-	oltin	5804,4	4109,8	70,8	24,7
2.	Import:	21153,8	25461,0	120,4	100,0
-	tovarlar	19932,4	23724,2	119,0	93,2
-	xizmatlar	1221,4	1736,8	142,2	6,8

Jahondagi globallashuv sharoitida, yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar hisobiga eksportni ko'paytirishga erishish hamda samaradorligini baholash borasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, sanoatning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish, uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni iqtisodiy-matematik, ekonometrik, statistik jihatdan baholash, mezonlarini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini modellash va o'sish (kamayish) tendensiyalarini real prognozlash hamda moddiy xarajatlarni qisqartirishning optimal variantlarini topish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz iqtisodiyotini, xususan, sanoatini barqaror rivojlantirish bo'yicha istiqboldagi strategiyalarni ishlab chiqishda quyidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

- sanoat tarmoqlarida ro'y beradigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va xodisalarning ta'sirini iqtisodiy-matematik usullar orqali miqdoriy baholash asnosida ilmiy yondashuvga asoslangan holda rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish;
- tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsion jozibadorlikni oshirish va chet el investirlariga qo'shimcha ish o'rinlarini ko'paytirish kelishuvi bilan ularga yanada keng imkoniyat va erkinliklar berish;

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.



- keng tarmoqli sanoat klasterlari faoliyatini rivojlantirish, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, klaster va davlat xaridi tizimini tashkil etish va shu orqali aholining bandligi hamda daromadini oshirish;
- sanoat korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Shu boisdan, biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali choralarni kuchaytirish;
- kelgusida mamlakat sanoat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo'lgan eng istiqbolli tarmoqlarga yo'naltirilgan investitsiya siyosati strategiyasini takomillashtirish va samarali amalga oshirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz YAIMning shakllanishida yuqori ulushga ega bo'lgan sanoatni va tarmoqdagi investitsion loyihalar tashabbuskorlarini amaliy qo'llab-quvvatlashga e'tiborni kuchaytirish, eksport va investitsiyalarni rivojlantirish bo'yicha islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiy-moliyaviy erkinliklarni kengaytirish, xususiy mulk huquqi daxlsizligini qat'iy ta'minlash, shuningdek, investorlar huquqini himoya qilishda institutsional ta'sirlarni va natijadorlikka e'tiborni kuchaytirish lozim.

Shuningdek, har bir tadbirkorlik subyekting muammosini hal qilishda individual yondashuv asosida tezkor va samarali yechimlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish mamlakatning investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda har tomonlama tejamkor zamonaviy texnologik yutuqlarni o'zlashtirish imkoni yaratiladi, pirovardida yuqori sur'atlarda iqtisodiy o'sish ta'minlaydi va yangi ish o'rinlarini yaratadi.

Ahamiyatli shundaki, bunday rivojlanish ta'minot, qiymat, yetkazib berish va is'temol zanjirining integratsion induviduallashtirish natijada aholining turli ehtiyojlarini mos ravishda qondirish hamda uning turmush tarzining yanada yaxshilanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. <https://lex.uz>
2. Michael Spence. Government and economics in the digital economy // Journal of Government and Economics. Volume 3, Autumn 2021, 100020. <https://doi.org/10.1016/j.jge.-2021.100020>
3. Nasimov D. A. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. –№ 4, iyul-avgust, 2020-yil.
4. Ilyosov A. A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli ishlab chiqarish va sanoat mahsulotlari eksportidagi ayrim muammolar // Iqtisod va moliya, –2020, 3(135), 179 b.
5. Dan Ma, Qing Zhu. Innovation in emerging economies: Research on the digital economy driving high-quality green development // Journal of Business Research. Volume 145, June 2022, Pages 801-813. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.-2022.03.041>
6. Luyanda Dube Williams. Concepts of Digital Economy and Industry 4.0 in Intelligent and information systems // International Journal of Intelligent Networks. Volume 2, 2021, Pages 122-129. <https://doi.org/10.1016/j.ijin.2021.09.002>
7. Wenrong Pan, Tao Xie, Zhuwang Wang, Lisha Ma. Digital economy: An innovation driver for total factor productivity // Journal of Business Research. Volume –139, February –2022, Pages –303-311. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.-2021.09.061>
8. UNIDO. Pocket Guide to World Statistics – 2020. SeriesV, №42. p.1-19.
9. https://uza.uz/uz/posts/sanoat-kooperatsiyasi-va-mahalliyashtirish-milliy-iqtisodiyotning-ustuvor-yonalishi_354257?q=%2Fposts%2Fsanoat-kooperatsiyasi-va-mahalliyashtirish-milliy-iqtisodiyotning-ustuvor-yonalishi_354257
10. <https://stat.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.